

POMIDOR O'SIMLIGINING FUZARIOZ KASALLIGI VA UNGA QARSHI KURASHISH CHORA TADBIRLARI.

Z.M.Botirova, D.R.Egamberdiyeva

O'zbekiston Milliy universitet

Kalit so'zlar: *Fusarium oxysporum, ildiz, patogen zamburug', fungitsid*

Hozirgi kunda mamlakatimizda aholi orasida eng keng miqyosda iste'mol qilinadigan rezavor mevalardan biri bu pomidor o'simligidir. Ammo o'simliklar dunyosining har bir tur vakillarida bo'lganidek pomidorda ham turli xil kasalliklar mavjud. So'nggi vaqtlarda pomidor o'simligida ko'p uchrayotgan fuzarioz kasalligiga qarshi kurashish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Fuzarioz kasalligi bu qo'ziqorin kasalligi bo'lib, uning qo'zg'atuvchisi *Fusarium oxysporum* zamburug'i hisoblanadi. Kasallik dastlab ildiz qismidan boshlanadi va bir o'simlikdan ikkinchi o'simlikka ildiz orqali osongina o'tib ketishi mumkin. Bu kasallikning dastlabki belgilari o'simlik asta sekin quriydi, poyaning ustki tomoni qorayadi.

Fusarium oxysporum zamburug'ining pomidor o'simligida 3 ta irqi (0, 1 va 2) ajratilgan. Yevropada uchraydigan 0- va 1- irqlariga chidamli navlar va ildiz payvantaglari mavjud. Vegetatsiya davrida kasallik tuproqqa ishlov berish qurollari va sug'orish suvi orqali hamda ko'chatlarni ko'chirib ekish paytida tarqaladi. Kasallik hosilga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'sish davrining o'rtalarida yengil zararlangan o'simliklarning hosili 11-12 foizga pasayadi.

Fuzarioz kasalligiga qarshi kurashish chora tadbirlariga to'xtaladigan bo'lsak, tuproqni ildiz yetgan chuqurlikkacha, odatda 25 sm gacha zararsizlantirish muhim ahamiyatga ega. Eng samarali usul bu- bug' bilan zararsizlantirishdir. Yana bir muhim kurash usullaridan biri pomidor urug'larini samarali fungitsidlar bilan dorilash hisoblanadi.

Olib borayotgan tajribalarimiz ma'lum bir endofit bakteriyalar yordamida ushbu kasallikni o'rganishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Sheraliyev " Umumiy va qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi"
2. T. "To'lqin" (2008) Bolotskiy, A.S. "Tomat"- Xarkov 2002 Abdugarimov, D.T. Kamiy tonat Toshkent 1987.